

JAHON DINLARI TIZIMIDA ISLOM DININING TUTGAN O'RNI

Ilmiy raxbar: X. U. Samatov

Abdug'ofurova Vazira Dilshod qizi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent

Axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali

TTKT fakulteti 23-04 guruh talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqola islom dini kelib chiqishi shakillanishi va payg'ambarimiz xayoti qilgan ishlari, diniy qadriyatlarning o'zgarishlari va islom diniga hissa qo'shgan ajdodlarimiz bebaho merosini o'rganish nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: din, payg'ambar, Quron.

Jahon dinlari orasida Islom diniga amal qiluvchi dindorlar soni 125 dan ortiq mamlakatlarida yashovchi 1.8 milliarddan ortiq kishini tashkil etadi. Islom so'zi "arab" tilidan olingan bo'lib "itoat va bo'ysunish, ixlos va turli ofatlardan salomat bo'lish, sulh va omonlik" degan ma'nolarni anglatadi. Islom dini Alloh yagona va etiqod bilan unga bo'ysunmoqlik itoat etmoqlik va butun vujudimiz ila unga ixlos qilmoqlik xamda Alloh buyurgan diniy etiqodga imon keltirmoqlikdir.

Ollohga itoat qilgan va olloh yuborgan payg'ambarlarga ergashgan inson musulmondur deyiladi.

Islom dinini payg'ambar Muhammad ibn Abdulloh (s.a.v) tomonidan Arabistonda targ'ib etilgan.

Muhammad (s.a.v) va uning safdoshlari islom dini nafaqat mukammal din ekanini va arab qabilalarini yagona davlatga birlashtirish qudratini ham ko'radilar. VII asrda Arabistonda ko'p xudolik diniy etiqodlar mavjud edi. 630 yilda Arabistonda yagona davlatga xalifalik birlashtirilgach islom dini yagona xukmron dinga aylandi.

Islom dinining yagona muqaddas kitobi Quron kitobi bo'lib uning ma'nosi (qiroat o'qish) degan ma'nolarni anglatadi. Musulmonchilikda bu kitobning butun mazmuni ollohning osmondan vahiy qilingan so'zi deb tushiniladi¹.

Muhammad payg'ambar (s.a.v) davrlarida Quron kitobi bir butun kitob xolatiga keltirilmagan edi. Payg'ambarning saxobalari safdoshlari Quron matnlarini suralari yod olib turli buyumlarga yozishgan. Muhammad (s.a.v) vafotidan so'ng Arab hukumdori

¹ <https://conferencepublication.com/index.php/aoc/article/download/929/1002/2826?shem=ssusxt>

Muhammadning safdoshlaridan biri Abu Bakr Siddiq Quron suralarini yoddan bilgan kishilar xayotligida suralarni to'plam holatiga keltirgan. Abu Bakr Siddiq to'platgan suralar to'plami "suxuf" deb ataldi. Xalifa Usmon davrida esa Quronning yangi nusxasi yaratilishiga ehtiyoj tug'ilgan. Bunga sabab xalifa Usmon davrida Arab xalifaligi ko'plab mintaqalrni o'ziga birlashtirar edi. Xalifalik tobora kengayib borgani sari insonlar orasida saxobalrning targ'ibot ishlarini olib borishi tobora qiyinlashdi. Buning natijasida esa Quron oyatlari suralari turli joylarda turlicha o'qila boshlandi². Bu xolat esa islom etiqodchilari orasida albatda turli ixtilof keltirib chiqarardi. Xalifa Usmon bu omilni ziyraklik bilan fahimlay oldi va tez fursat Ichida Quronni bir kitob holatiga olib kelishga amr etdi. Xukmdor Usmonning amri 651-yilda bajarildi. Quronning bu nusxasi "Musxaf" ko'pincha esa "Usmon to'plami" deb ataldi. Quronning ilk nusxasi kiyik terisiga bitilgan bo'lib keyinchalik tafovutlar chiqmasligi uchun "Musxaf" to'plamidan boshqa barcha nusxalari yo'q qilingan. Quron to'plamining asl nusxasi Madinada qoldirilib qolgan 4 nusxasi esa Makka, Kufa, Basra va Damashqqa yuborilgan edi. "Usmon to'plami" jome masjidida saqlanib undan nusxa olish xattoki ichiga biror bargdan xatcho'p ham qo'yish mumkin emas edi. Umaviy xalifa Abdul Malik ibn Marvon davrida esa bu hol tubdan o'zgaradi yani xalifalik tobora kengayib bormoqda edi. Qurondan nusxa olish jarayonida unga o'zgarishlar bo'lmasligi uchun unga arab belgilari va suralar nomi yozib chiqildi natijada esa Quron 114 suradan iborat bo'ldi. Quron kitobining hozirda 4 nusxasi ham mavjud bo'lib uning 1 nusxasi Toshkenda musulmonlar idorasining kutubxonasida saqlanayotgan bo'lsa qolgan 3 nusxasi esa Qohira, Makka, Madinada saqlanib kelmoqda. Quron kitobi 114 ta suraga suralar esa ko'p yoki oz miqdordagi oyatlarga bo'lingan (Sura bandlari). Suralar esa o'z navbatida Makka suralariga (610-622 yillar 86 sura) Madina suralari(622-632 yillar 28 sura) larga ajratilgan.

VII asda islom dini ikki yirik oqimga bo'linadi ular sunniylik va shiyalik oqimlaridir. Sunniylik (sunna so'zidan olingan bo'lib asl islom ananalari tarafdorlari degan ma'noni anglatadi) tarafdorlar o'zlarini axl as-sunna yani sunna axli deb atadilar va Muhammad payg'ambar (s.a.v) ning shialar tomonidan buzilayotgan ananalariga faqat bizgina amal qilayabmiz ded xisoblardi. SHialik (guruh partiya tarafdorlari yani ollohning guruhi tarafdorlari degan manoni anglatadi). Ali va uning avlodini Muhammad payg'ambarning birdan bir qonuniy vorislari deb tan oladigan turli sektorlarning umumiy nomidir³.

² <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Islomiya>

³ <https://fayllar.org/xojagon-va-naqshbandiya-tariqati-va-uning-irfoniy-asoslari-abd.html>

Musulmonlar e'tiqodiga ko'ra, Allohning oxirgi payg'ambari va uning elchisi. Shu ma'noda uni Rasululloh, Rasuli Akram deb atash odat tusiga kirgan. Muhammadning bolalik va o'smirlilik yillari haqidagi ma'lumotlar juda kam. Muhammad go'dakligidayoq yetim qolgan; tug'ilmasidan avval otasi Abdulloh, 6 yoshligida esa-onasi Omina vafot etgan. Muhammadni o'z tarbiyasiga olgan bobosi Abdulmuttalib ham ko'p o'tmay olamdan o'tadi. Yetim Bolani tarbiya qilishni amakisi Abu Tolib o'z zimmasiga oladi. 12 yoshida Muhammad bir muddat Abu Tolibning podasini boqadi, keyin tijorat ishlariga jalb qilinadi. Xadichaning savdo ishlari bilan shug'ullangan Muhammad Suriyaga safar qiladi, xususan Halab va Damashq shaharlariga boradi. Muhammad 25 yoshida (595-yil) 40 yoshlarga borib qolgan Xadichaga uylanadi. Muhammaddan Xadicha 3 o'g'il Qosim Tohir Tayyib va 4 qiz Ruqiya Zaynab Ummu Kulsim Fotima ko'rgan. O'g'illari go'dakligidayoq vafot etgan. Qizlaridan Fotimagina Muhammad naslini davom ettirgan. Xadicha vafotidan so'ng Muhammad bir necha bor uylangan lekin Oyshadan boshqa bokira xotin olmagan ulardan farzand ko'rmagan. Faqat joriyasi Mariyamdan Ibrohim ismli o'g'il bo'lgan. U ham juda yoshligida olamdan o'tgan. Muhammadning hayoti va tarjimai holi siyratida uning so'zlari va qilgan ishlari haqidagi rivoyatlar hadislardan bayon etilgan⁴. Islom ta'limotida Muhammad komil inson sifatida ta'riflanadi. Islom an'anasida Muhammad hech qanday g'ayritabiiy ilohiy xususiyatga ega emasligi; balkim hamma kabi oddiy odam, lekin Allohning chin va oxirgi payg'ambari ekanligi qayd etiladi.

Muhammadning shakl-u shamoyillari, siyrat-u sifatleri, insoniy fazilatleri, boshqa payg'ambarlardan farq etadigan xususiyatlari to'g'risida u bilan birga yurgan, suhbatlaridan bahraman bo'lgan sahobalar hamda nikohida bo'lgan ayollari tomonidan naql qilingan rivoyatlar asosida ko'plab asarlar bitilgan. Ulardan Abu Iso Termiziyning "Shamoiili nabaviya" Muhammad Busuriyning "Qasidai burda" Abu Ja'far Barzanjiyning "Mavliddin – Nabii" Muhammad ibn Solihning "Muhammadiya" Mavlono Mu'inning "Siyarisharif" Akbarobodiyning (Nodirulme'roj) Sayyid Mahmud Taroziyning "Shirin kalom" "Nurul kalom" "Nurulbasar" va boshqa ko'plab mualliflarning asarlari misol qilib keltirish mumkin. Imom Termiziyning "Shamoiili Muhammadiyya" kitobi ular ichida qadimiyligi va rivoyatlarining sahihligi bilan ajralib turadi. Unda Muhammadning jismoniy va axloqiy xususiyatlariga batafsil ta'rif berilgan. Masalan, ikki kiftlar o'rtasida

⁴ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Islomiya>

“Muhammadun rasululloh” deya bitilgan muhri nubuvvatlari bo’lgan soch - soqollarining oqu-qorasi nechta bo’lganidan tortib, kiyim – kechaklari oyoq kiyimlari, taqqan uzuklari qilich-qalqonlari salla- choponlari yegan va yoqtirgan taomlari ovqatdan oldin keyin o’qigan duolari suv ichishlari xushbo’y narsalarni iste’mol qilishlari so’zlashish odoblari xulq- odoblari kulish va hazil mutoyibalari musiqa va she’riyatga munosabatlari ibodat va riyozatlari tilovat va munojatlari yotish-turishlari tibbiyotga munosabatlari kundalik tirikchiliklari nomu laqablari umurlarining miqdori xastalik va vafotlari qoldirgan meroslari va boshqa sifatleri to’g’risida alohida -alohida bob va fasllar orqali bayon etilgan. Jismoniy tuzilishlari to’g’risida jumladan shunday naql qilinadi: “ Ul zotning bo’ylari unchalik novcha ham past ham emas bosh qo’l oyoq va kiflari yo’g’on yuzlari qizg’ish ko’zlari katta oqi juda oq qorasi o’ta qora o’tkir sochlari quloqlarining yumshoqlarigacha yopiq yelkalariga tegib- tegmay turar bo’yinlari sochlari orasidan tovlanib go’yo kumush ko’zdek ko’rinib turar terlasalar marjondek terlaridan muattar hid taralar biror kishiga qayrilib qaramoqchi bo’lsalar boshlarinigina burib qaramay balki butun gavdalari bilan o’girilib qarar edilar. Old tomonlarini qanday ko’rsalar, orqa tomonlarini ham shunday ko’rar edilar”.

Qosim Rasulullohning (s.a.v) to’ng’ich farzandi bo’lib payg’ambarlik vahiyi kelishidan oldin tug’ilgan. O’n yeti oylik bo’lganida vafot etgan.

Ibn Ishoq va boshqa olimlar Qosim payg’ambarlik kelmasidan ilgari vafot etgani haqida ma’lumot berishgan.

Payg’ambarimizni (s.a.v) shu o’g’illarining nomi bilan “Abulqosim” ya’ni “Qosimning otasi” deb chaqirishgan.

Nabiyning (s.a.v) ikkinchi o’g’illari Tohir haqida Zubayr ibn Bakkor bunday deydi: “Rasulullohning (s.a.v) Qosim va Ibrohimdan boshqa Abdulloh ismli farzandi ham bor edi. Uni uch nomi bilan “Abdulloh” “Toyyib” va “Tohir” deb chaqirardilar. U go’dakligida Makkada vafot etdi”.

Payg’ambarimizning (s.a.v) Ibrohim ismli o’g’ligina qibitiy Moriya onamizdan (roziyallohu anho) tug’ilgan qolgan barcha farzandlari Xadicha onamizdan (roziyallohu anho).

Mashhur rivoyatlarda keltirishicha Ibrohim hijriy sakkizinchi yili Zulhijja oyida tug’ilib 18 oyligida vafot etadi. Janozasini Payg’ambarimizning (s.a.v) o’zlari o’qib Madinadagi “Baqi” qabristoniga dafn etganlar.

Mug’riya ibn Sho’badan qilingan rivoyatlarda aytilishicha Ibrohim vafot etgan kuni quyosh tutiladi. Shunda odamlar: “Quyosh Ibrohim vafot etgani uchun tutildi”, deyishadi. Bu so’zni eshitgan Nabi (s.a.v) ularning aqidalarini to’g’irlash va

qalblaridagi xató shubha-gumonlarni tarqatib yuborish maqsadida: “Quyosh ham oy ham bironing vafot etgani yoki tug’ilgani uchun tutilmaydi. Agar ular tutilganini ko’rsangiz namoz o’qing va Allohga duo qiling” deb ta’lim beradilar.

Ba’zi manbalarda jumladan Ibn Hishomning “As-siyra an – Nabaviya” kitobida Payg’ambarimiz (alayhissalom) qizlarining yosh jihatidan tartibi quyidagicha keltiriladi: kattalari Ruqayya so’ng Zaynab so’ng Ummu Kulsum so’ng Fotima (roziyallohu anhumma). Ammo boshqa mo’tabar manbalarda Nabiyning (sollallohu alayhi va sallam) to’ng’ich qizlari Zaynab ekani aytiladi. Ibn Ishoq keltirgan ma’lumotga ko’ra Zaynab Payg’ambarimiz (s.a.v) 30 yoshga kirganlarida tug’ilgan katta qizidir. Hijratning 8-yili xolavachchasi va eri Abul Os ibn Rob’e vafot etadi. Zaynabni qabrga Rasululluhning (s.a.v) o’zlari qo’yganlar.

Zaynabdan Ali va Umoma ismli ikki farzandi qolgan. Ali balog’at yoshiga yetib -yetmay vafot etgan.

Rasulullohning (s.a.v) ikkinchi qizlari Ruqayya u zot (alayhissalom) 33 yoshga to’lganlarida tug’ilgan. Undan so’ng esa uchinchi qizlari Ummu Kulsum tug’ilgan.

Ruqayya va Ummu Kulsum Abu Lahabning ikki o’g’li Utba va Utaybaga unashtiriladi.” Masad “ surasi nozil bo’lgach Abu Lahab ikki o’g’lini chaqirib: “Agar Muhammadning ikki qizidan kechmasanglar onalaring menga harom bo’lsin” deb qasam ichadi. O’g’illari uning aytganini qilishadi. So’ng Makkadan hazrat Usmon (roziyallohu anhu) Ruqayyaga uylanadilar.

Payg’ambarimizning (s.a.v) uchinchi qizlari Ummu Kulsum Ruqayya vafot etgach hijratning uchunchi yili rabiul avval oyida Usmonga (roziyallohu anhu) turmushga chiqadi. Shu sababli Usmon (roziyallohu anhu) “Ikki nur egasi” degan nom oladi. Ummu Kulsum Hazrat Usmondan (roziyallohu anhu) farzand ko’rmagan.

Fotima (roziyallohu anhu) Payg’ambarimiz (s.a.v) 41 yoshga kirganlarida tug’ilgan.

Rasululloh (s.a.v): “Fotima mening bir bo’lagim, kim uni yomon ko’rsa, meni yomon ko’ribdi” deganlar (Imom Buxoriy, Imom Muslim).

Fotima 3 hijriy yili Ali ibn Abu Tolibga (roziyallohu anhu) turmushga chiqadi. Payg’ambarimiz (alayhissalom) vafotlaridan olti oy o’tgach 29 yoshlarida bu dunyodan oxiratga ko’chadi.

Fotima (roziyallohu anhu) Ali ibn Abu Tolibdan (roziyallohu anhu) Hasan, Husayn va Muhsin ismli uch o’g’il farzand ko’radi.

Muhsin yoshligida vafot etadi. Zaynab va Ummu Kulsumga oxirzamon Payg’ambarining naslini davom ettirish nasib qilamadi. Bu baxtga Fotima (roziyallohu

anhu) mushqarraf bo'ladi. Uning o'g'illari Hasan va Husayn avlodlari butun yer yuziga yoyiladi.

Imom Hasanning (roziyallohu anhu) avlodlari asosan arab diyorlarida tarqalgan. Imom Husayn (roziyallohu anhu) avlodlari esa O'rta Osiyoda ham ko'p. Islom payg'ambari Muhamma s.a.v ga 13 nafar ayol turmushga chiqadi. Musulmonlar hurmat belgisi sifatida ularga murojaat qilishdan oldin yoki keyin Qur'on 33:6 dan olingan atama Ummu al-Mo'minin ishlatiladi. Bu ibora "Mo'minlarning onasi" degan ma'noni anglatadi.

Muhammad s.a.v 25 yoshida birinchi xotini Xadicha binti Xuvaylidga uylangan. Bu nikoh 25 yil davom etgan. Milodiy 619-yilida vafotidan keyin umrining qolgan yillarida jami 12 ta ayolga uylanadi. Bu ayollardan ikkitasi: Xadicha va Mariya al-Qibtiyya farzand ko'rdilar.

Muhammad s.a.v ning hayoti an'anaviy ravishda ikki davrga bo'linadi: hijratdan oldingi Makka (g'arbiy Arabistondagi shahar) milodiy 570-yildan 622-yilgacha va Madinada hijratdan keyingi 622-yildan 632-yilda vafotigacha bo'lgan davrlar. Hijrat deganda Muhammad s.a.v va uning izdoshlari Makkada musulmonlar duch kelgan zulmlar tufayli Madinaga ommaviy hijrat qilishlari tushuniladi. Uning ikki nikohidan boshqa barcha nikohlari shu hijratdan keyin bo'lgan.

Islom madaniyati markazi 1944-yil noyabr oyida Londonda bevosita Qirol Jorj VI ning tashabbusi bilan ochilgan. Besh ming kishiga mo'ljallangan London markazi masjidi ham markazga birlashtirilgan. Markazning asosiy maqsadi islomning tinchlik, bag'rikenglik va birdamlik dini sifatidagi asl mohiyatini targ'ib qilishdan iborat bo'lib markaz faoliyatining dini sifatida asl mohiyatini targ'ib qilishdan iborat bo'lib markaz faoliyatining barcha jabhalari shu nuqtai nazardan kelib chiqadi. Markazda diniy ishlari bo'limi mavjud bo'lib u nafaqat kundalik ibodatalari bilan shug'ullanadi balki alohida diniy maslahat va fatvolar ham beradi. Shuningdek markazda dinlararo muloqot va targ'ibot bo'limi ham mavjud bo'lib u turli e'tiqoddagi jamoalar o'rtasida muloqot olib boradi. Bunda markaz turli din vakillari o'rtasida totuvlik va o'zaro birdamlikni yoyishni maqsad qilgan. Bundan tashqari, Markaz so'nggi yillarda turli ma'ruzalar tadbirlar va o'quv kurslari orqali o'z faoliyatini yanada kengaytirdi. Har yili Buyuk Britaniya va chet eldan 15 mingdan ortiq talaba Islom madaniyati markaziga ekskursiya va boshqa maqsadlarda tashrif buyuradi.

Markazda barcha yoshdagi talabalar uchun arab tili xattotlik islom bilan tanishtiruv dinshunoslik kabi ta'lim kurslari mavjud. Markazda musulmon oilalarning farzandlari uchun mo'ljallangan maktab ham faoliyat yuritadi. Maktabda arab tili

Qur'on va islom haqida umumiy bilimlar beriladi. Markaz islom haqida tushuncha hosil qilish Muhammad (s.a.v) ning hayotlari va u zotning ta'limotlarini tanitishga doir bir qator kitoblarni nashr qilish va tarqatish bilan ham shug'ullanadi. Hozirda markazda Qur'oni Karimning 43 ta tildagi tarjimasi mavjud. Markaz tarifidan "Islamic Quarterly" jurnali chop etiladi. Markaz registratorlik xizmatlari ya'ni nikoh ajrashish islomga kirganlik bo'yicha ma'lumotnoma va sertifikatlarni taqdim etadi. Dafn marosimlarini tashkil qiladi⁵. Markaz faoliyati Vasiylik kengashi tomonidan idora etiladi. Vasiylik kengashi raisi-Shayx Favoz ibn Muhammad al-Xalifa. Markaz direktori -doktor Ahmad al-Dubayan.

Ma'rifatga yo'l ko'rsatish va jamiyat qonunlarini o'rganish uchun payg'ambar zarurdir. Inson yashash uchun miyaga, jamiyat esa qonunlarga muhtojdir. Shuning uchun payg'ambarlar insonlar o'rtasida uyg'unlikni o'rnatish maqsadida narigi olamdan xabarlar keltiradilar. Komil inson ma'rifati insondir. Payg'ambarlar eng ko'p ma'rifatga egadirlar. Ularning yaxshisi mursal payg'ambarlardir. Muhammad payg'ambarlik silsilasining oliy nuqtasi va oxiri bo'lib payg'ambarlik muhri hisoblanadi.

Ruh egallashi lozim bo'lgan oliy maqom-bu payg'ambarlar maqomidir. Bu maqomni egallaganlar samoviy ovozlarni eshitadilar ruhoniylar suratlarini ko'ra oladilar. Payg'ambarlarning va buyuk avliyolarning ruhlari poklikning shunday darajalariga erishadilarki xuddi ilohiy ibtido jismlarga ta'sir o'tkazgandek moddiy dunyoga o'z ta'sirini o'tkazishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'shon M.A. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. –T.: Cho'lpon, 2000, -80 b.
2. Ismoilov S.T. Naqshbandiya tariqatining tasavvuf taraqqiyotidagi o'rni.
3. Amir Temur o'g'itlari. Toshkent, Navro'z, 1992 y, 58-bet.
4. Jo'raev U., Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. 154-155-betlar.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 17-tom, —Fan, Toshkent, 2001y
6. Imomnazarov M. Eshmuhammedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. 176-bet.
7. Islom ensiklopediyasi. 138-139-betlar;
8. Alisher Navoiy, To'la asarlar to'plami, 17-j., T., 2002;
9. Abul Muqsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali, Bahouddin Balogardon, T., 1993;
10. Idris shoh, Naqshbandiy tariqati, T., 1993;
11. Komilov N., Tasavvuf. Birinchi kitob, T., 1996;
12. Navruzova G., Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va barkamol in-son tarbiyasi, T., 2002
13. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Naqshbandiya>
14. <https://conferencepublication.com/index.php/aoc/article/download/929/1002/2826?sheet=ssusxt>

⁵ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Islomiya>